



SO’Z O’ZLASHISH USULLARINING O’RGANILISHI

Qarshiyeva Xolida Azamat qizi

Samarqand davlat universiteti 2-bosqich magistranti

karshiyeva_xolida97@mail.ru

Annotatsiya: Maqolada o’zbek tiliga so’z o’zlashish hodisasi va ularning olimlar tomonidan o’rganilish usullari keng tahlil qilindi. Xususan so’z o’zlashish hodisasi haqida olimlarning fikrlari keltirilib o’tildi.

Kalit so‘zlar: o’zlashma, ikkitillilik, tillararo bog’liqlik, semantik o’zlashma, og’zaki va yozma nutq.

Аннотация: В статье ширококо проанализировано явление ассимиляции слов в узбекский язык и методы их изучения учеными. В частности, были представлены мнения ученых о феномене словообразования.

Ключевые слова: овладение, двуязычие, межъязыковая связь, семантическое овладение, устная и письменная речь.

Abstract: In the article, the phenomenon of word assimilation into the Uzbek language and the methods of their study by scientists were extensively analyzed. In particular, the opinions of scientists about the phenomenon of word acquisition were presented

Key words: acquisition, bilingualism, interlanguage connection, semantic acquisition, oral and written speech.

Hozirgi kungi ijtimoiy hayot va ishlab chiqarishning o’sishi, sivilizatsiya va ilmiy-texnika revolutsiyasining dunyoning hamma burchaklariga shaxdam qadamlar tashlab kirib borishi, xalq va tillarning bir-biridan ajralib, aloqasiz yashashga bo’lgan imkoniyatlarini butunlay yo’qqa chiqardi. Undan tashqari, yer yuzida birorta ham xalq yo’qki, o’z taraqqiyoti davomida tashqi dunyo xalqlari muvaffaqiyatlariga e’tiborsiz qarasin va ulardan o’rganmagan bo’lsin. Tabiiyki, bular hammasi, avvalo, o’z aksini tilda va til orqali namoyon qiladi. Natijada tilda o’zlashish hodisasi yuz beradi. Shundan kelib chiqib o’zlashma so’zining ma’no xususiyatiga e’tibor qaratadigan bo’lsak:

“O’zlashma” termini ma’nosini o’zlashmoq va o’zlashtirmoq fellarining anglatadigan ma’nolari bilan taqqoslaydigan bo’lsak, u asosan birinchi va uchinchi punktlarga va qisman qolgan boshqa punktdagilarga ham to’gri keladi. Lekin har qanday chet so’z o’zi o’zlashayotgan tilda qanchalik darajada “yaroqli va foydalansa bo’ladigan qilinmasin”, qanchalik darajada “til egalari ongiga yetib borib, ular uchun tushunarli bo’lmasisin”, qanchalik darajada “inoqlashib, singishib, o’ziniki bo’lib olmasin”, qanchalik darajada “shaklan va mazmunan o’zgarmasin”, u etimologik jihatdan bari bir chet so’zdir.

Tilshunoslikda o’zlashmalar mavzusi bo’yicha bir qator tadqiqot ishlari olib borilgan. Mazkur mavzuga oid tadqiqotlarni o’rganish jarayonida ushbu tushunchaga bo’lgan qarashlar xilma-xilligi va qarama-qarshiligini ko’rishimiz mumkin. Shu bilan birga, leksik o’zlashmalar borasidagi fikrlar ham ikki tarmoqqa bo’linganligiga guvoh bo’lamiz.



N.N.Amosova, L.Blumfild, L.P.Krisin, A.P.Mayorov kabi bir guruh olimlar o'zlashayotgan tilga chet tili elementlarining kirib kelishiga tilning ichki tizimi aspektlari doirasida yondashgan bo'lsa, V.M.Aristova, U.Vaynrayx, E.Xaugen kabi boshqa bir guruh olimlar esa o'zlashmalarni ikkitillilik, tillararo va tizimlararo o'zaro ta'siri sharoitida vujudga keladi³⁶, deb hisoblashadi.

M.Zokirov fikricha, o'zlashmalar paydo bo'lishi va shakllanishi uchun tillar, albatta, o'zaro kontaktga kirishishi lozim. Shuningdek, o'zlashmalar jamiyat va tildan ajralgan holda sodir bo'lmaydi. Sababi har qaysi til tizimi doimiy o'zgarishlarga yuz tutadi³⁷. Tillarning o'zaro ta'siri esa aniq bir sabablarni taqozo etadi.

N.Iskanova "Mustaqillik yillarida global ilmiy-texnik progress, ommaviy axborot muloqotining rivojlanishi, internet tarmoqlarining kashf etilishi, jamiyat hayoti sur'atining o'sishi bilan bog'liq holda tilimizga kirib kelgan o'zlashmalar gazeta materiallari asosida tahlilga tortilmagan"³⁸ligini alohida ta'kidlab, ushbu davrda o'zbek tiliga kirib kelgan o'zlashmalarning tarkibiy-mazmuniy tuzilishi, qo'llanish sohasi va yasalish xususiyatlarini ochib berish, tarjima muammolarini bartaraf qilishga doir tajribalarga tayanib tadqiqot olib boradi.

O.Shukurov o'z tadqiqot ishida keyingi davrda paydo bo'lgan o'zlashmalarning semantik o'zgarishlarga uchrayotgani haqida yozadi. Tilimizga keyingi davrda o'zlashgan *kolumnist, sammit, xaki, tyutor* kabi xorijiy o'zlashmalarning manba tildagi ma'nosi toraygan bo'lsa, *xaker* leksemasining ifoda semasi bo'rtgan, lug'atdagi hosila ma'no sifatidagi ikkinchi ma'no bosh ma'no darajasida shakllangan³⁹ligini ta'kidlaydi.

Olima D.Hasanova bir tildan boshqa tilga o'tayotgan lisoniy birliklarning, o'zlashishi o'ziga xos lisoniy shart-sharoitlar bilan belgilanishini aytadi:

1) olinmaning so'z qabul qilgan tilning fonetik va morfologik qonuniyatlarini ta'sirida me'yorga kirishi;

2) nutqda, uning har xil uslublarida muntazam qo'llana olishi, muallifi har xil asarlarda keng ishlatila olish imkoniyatiga ega bo'lishi;

3) so'z o'zlashtirgan tilning so'z yasash qonun-qoidalariga bo'ysunishi va so'z yasash jarayonida faoliyat ko'rsata olishi;

4) so'z o'zlashtirgan tilda shu tilga mansub lisoniy birliklar bilan frazeologik iboralar hosil qilish imkoniyatiga ega bo'la olishi; tildagi boshqa lug'aviy birliklar bilan ayni bir (mushtarak) ma'noda qo'llanmaslik, ma'no farqlash xususiyatiga ega bo'lish kabilari⁴⁰.

A.Nurmonovning fikricha, o'zlashmalarning o'zaro nisbati obyektiv ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar ta'siri ostida turli davrlarda turlicha bo'lgan. O'zbek tiliga so'z o'zlashtirish jarayoni hozirgi kunda majburiylik asosida emas, balki tillar rivojlanishining ob'ektiv qonuniyatlariga mos holda amalga oshmoqda. Lekin sobiq sho'rolar davrida o'zbek adabiy

³⁶ https://studref.com/320642/literatura/sootnoshenie_poniatiy_zaimstvovanie_bilingvizm_interferentsiya

³⁷ Зокиров М.Т. Ўзбек-тожик билингвизми. Фарғона.2022.

³⁸ N.Iskanona "Mustaqillik yillarida o'zbek tiliga kirib kelgan xorijiy so'zlarning tarkibiy-mazmuniy tahlili" ("Xalq so'zi" gazetasi materiallari asosida), Samarqand, 2021.

³⁹ Shukurov O. O'zbek tili zamonaviy o'zlashmalarining evolyutsiyasi, transformatsiyasi, va leksikografik talqini masalalari (Mustaqillik davri), -Qarshi,2022.-B.21.

⁴⁰ Mahmudov N. Olamning lisoniy manzarasi va so'z o'zlashtirish // O'zbek tili va adabiyoti. 2015. №3. – B. 9.



tili leksikasiga, ayniqsa, uning terminologiyasiga ko'plab ruscha, baynalmilal so'zlar zo'rma-zo'raki kiritildi. O'zbek tili davlat tili maqomini olgandan keyingi davrda shunday so'zlar o'zbek tilida avvaldan mavjud bo'lgan so'z va terminlar bilan almashtirilmoqda⁴¹

B.Mengliev o'zining "Hozirgi o'zbek tili" darsligida leksikaga yangi kirib kelayotgan so'zlarning tilga singishi sekinlik bilan kechishini e'tirof etar ekan, qabul qiluvchi tilning ayrim talablariga javob berishi zarurligini aytadi:

1) farqlanish. Til, avvalo, yozma va og'zaki nutqqa ayricha talablarni qo'yadi. Masalan, dorixona so'zi yozma nutqqa, o'zlashma apteka esa og'zaki nutq uchun xos. Lekin ikkalasi ham me'yoriy hisoblanadi.

2) qulaylik. O'zbek tilida oblast va viloyat, plan va reja, programma va dastur so'zlaridan ikkinchilari, qaysi tilga mansubligidan qat'i nazar, talaffuz va imlo jihatidan qulay. Shuning uchun til qulay variantni tanlaydi;

3) zamonaviylik. Imlo qoidalarida, tilning muosir izohli va imlo lug'atlarida u yaratilayotgan davr ruhi aks etishi katta ahamiyatga ega. Masalan, bek so'zini polkovnik, beklarbegi birikmasini polkovnik, qozi so'zini sudya so'zlari olishi yangi zamon talabidir⁴².

X.D.Doniyorov: So'z o'zlashtirish – har qanday til taraqqiyotida qonuniy jarayon, binobarin, biror bir xalq boshqa tillar ta'siridan tashqarida yashay olmaydi. Lisoniy hodisalarning leksika doirasida ekstralingvistik, ya'ni nolisoniy omillar bilan bog'liqligi bir tildagi turli birliklarning boshqa tillarga o'zlashtirilishida yaqqol namoyon bo'ladi. O'zlashtirishning bu turi turli tillarda so'zlashuvchi xalqlar o'rtasidagi iqtisodiy, siyosiy, madaniy va boshqa aloqalar natijasida paydo bo'ladi⁴³.

ADABIYOTLAR:

1. Mahmudov N. Olamning lisoniy manzarasi va so'z o'zlashtirish // O'zbek tili va adabiyyoti. 2015. №3. – B. 9.
2. Jomonov R. O. O'zbek tilida so'z o'zlashtirish va imlo muammolari. – Toshkent: O'zbekiston, 2013. – B. 38.
3. Madvaliyev A. O'zbek teminologiyasi va leksikografiyasi masalalari. -Toshkent: O'ME, 2017. – B. 214 bet.
4. To'raxojayeva A.X. Mustaqillik sharoitida o'zbek tili ijtimoiy-siyosiy leksikasining taraqqiyoti. –T.: Filol. fan.nomzodi diss... avtoref., 2012. –B. 20
5. Xamrayeva Y. O'zbek tilining o'quv ideografik lug'atini yaratish tamoyillari: Filologiya fanlari nomzodi...diss. avtoref. – T., 2010. 6-b.
6. Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 5 жилдлик. З-жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2007. – 688 б.
7. Ўзбек тилининг изоҳли луғати: 5 жилдлик. 4-жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2007. – 606 б.

⁴¹ Jomonov R. O. O'zbek tilida so'z o'zlashtirish va imlo muammolari. – Toshkent: O'zbekiston, 2013. – B. 38.

⁴² Madvaliyev A. O'zbek teminologiyasi va leksikografiyasi masalalari. –Toshkent: O'ME, 2017. – B. 214 bet

⁴³ Дониёров Р. Терминларни ўзлаштириш мезонлари хақида // Ўзбек тили ва адабиёти. Тошкент, 1991, № 6. – Б. 21-26.